

Eldor Aripov Sochi shahrida "Valday" xalqaro munozara klubining XXII yillik yig'ilishida ishtirok etdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori Eldor Aripov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi 29-sentyabr – 2-oktyabr kunlari Sochi shahrida bo'lib o'tayotgan "Valday" xalqaro munozara klubining 22-yillik yig'ilishida ishtirok etmoqda. Forum mavzusi – "Ko'p markazli dunyo: foydalanish qo'llanmasi."

"Xalqlarning buyuk ko'chishi yoki davlatlarning buyuk qayta qurilishi?" sessiyasida so'zlagan nutqida E.Aripov bugungi kunda migratsiya global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aks ettirib, zamonaviy taraqqiyotning tabiiy qismiga aylanib borayotganini ta'kidladi. Uning BMT ma'lumotlariga tayanib aytishicha sayyoramiz aholisining har 25 tadan biri o'z mamlakatidan tashqarida yashaydi va ishlaydi.

Institut direktori Yevrosiyo mintaqasida assimetrik demografik tendensiyalar kuzatilayotganini alohida ta'kidladi. Ayrim davlatlar aholi qarishi va mehnatga layoqatli fuqarolar ulushining kamayishi kabi muammolarga duch kelayotgan bo'lsa, boshqalarida aholining barqaror o'sishi hamda yoshlarning mehnat bozoriga ommaviy ravishda kirib kelishini kuzatish mumkin.

Ushbu qarama-qarshi tendensiyalar obyektiv ravishda o'zaro demografik hamkorlik uchun sharoit yaratadi, bunda ba'zi mamlakatlarning ehtiyojlari boshqalarning salohiyati bilan muvozanatlashtirilishi mumkin.

Ushbu fikrni davom ettirib, SMTI direktori davlatlarning o'zaro inson almashish qobiliyati iqtisodiy o'sish va xalqaro raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biriga aylanayotganini qayd etdi. Germaniyada migrantlar mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 5 foizini, Kanadada esa 16 foizini tashkil qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, E.Aripov Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy aholisi allaqachon 80 million kishidan oshganini, ularning qariyb 65 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini ta'kidladi. Bundan tashqari, ekspertning qo'shimcha qilishicha, 2050-yilga borib mintaqah aholisi soni 100 milliondan oshadi, mehnatga layoqatli aholi soni esa 51 milliondan 70 millionga yetadi.

Shu bilan birga, u O'zbekistonda o'rtacha yosh atigi 28 yosh ekani, mehnat bozoriga har yili 650-700 ming yoshlar kirib kelayotganiga e'tibor qaratdi. "Bu quruq raqamlar emas, balki ertangi kunning qiyofasidir," - deya ta'kidlagan mutaxassis, mamlakat siyosati demografik salohiyatni iqtisodiy o'sish manbaiga aylantirishga qaratilganini qo'shimcha qildi.

Uning aytishicha, O'zbekiston misoli demografik tendensiyaning iqtisodiy tuzumni qanday o'zgartirayotganini yaqqol ko'rsatib beradi. "Bizning yo'nalishimiz aniq: yosh avlodni ijtimoiy chaqiriq emas, balki barqaror taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish," - deya yakunladi E.Aripov.

Delegatsiya rahbari O'zbekiston strategiyasining uchta asosiy yo'nalishiga batafsil to'xtalib o'tdi.

Birinchidan, Institut direktori ta'kidlaganidek, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson kapitali sifatini oshirishga sarmoya kiritishdan iborat. So'nggi o'n yil ichida mamlakatimizda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi deyarli uch barobar – 27 foizdan 74 foizgacha, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi esa besh barobardan ko'proq – 9 foizdan 46 foizgacha o'sdi. Universitetlar soni 220 tadan oshib ketdi, ularning 35 tasi xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari bo'lib, bu akademik muhit standartlarini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

STEM yo'nalishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda 500 mingdan ziyod o'quvchiga matematika, informatika va robototexnika fanlarini chuqurlashtirib o'qitilib, ta'lim tizimi bosqichma-bosqich raqamli davr talablariga moslashtirilmoqda. E.Aripov Jahon banki ma'lumotlariga tayanib, o'zbek yoshlarining raqamli savodxonlik darajasi allaqachon Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslasa bo'ladigan darajada ekanligini ta'kidladi.

Ikkinchidan, Eldor Aripov qayd etishicha, O'zbekiston "virtual migratsiya" formatini faol rivojlantirmoqda, bunda fuqarolar o'z vatanida bo'lib, global bozorlar uchun ishlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, mamlakatda 15 dan ortiq IT-parklar mavjud bo'lib, ularda 3 mingdan ortiq rezidentlar faoliyat yuritadi va har oyda 35 ga yaqin yangi IT-parklar ro'yxatdan o'tkaziladi.

Uning ta'kidlashicha, raqamli xizmatlar eksporti hajmi allaqachon 900 million dollardan oshgan va 2030-yilga borib 5 milliardga yetishi mumkin. Shu bilan birga, aynan yoshlar texnologik o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi: har uchinchi startup 30 yoshgacha bo'lgan odamlar tomonidan yaratiladi. Bunday dinamika iqtisodiyot tuzilmasida sifat jihatdan o'zgarish ro'y berayotganidan dalolat.

Yoshlar tobora ko'proq an'anaviy yollanma ishchi modelidan voz kechib, o'z biznesini yaratish yo'lini tanlashmoqda. E.Aripov bu mustaqillik, ijodkorlik va texnologik yetakchilikka yo'naltirilgan yangi bilimlar iqtisodiyotini shakllantirishning muhim belgisi ekanligini ta'kidladi.

Uchinchidan, O'zbekiston sirkulyar migratsiya modeliga e'tibor qaratmoqda, dedi ekspert. O'zbekistonda fuqarolarga xorijda qonuniy mehnat qilish, kasbiy tajriba orttirish va uni milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'llash imkonini beruvchi shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Buning uchun O'zbekistonga qaytayotgan migrantlarga soliq va moliyaviy imtiyozlar berilmoqda. O'tgan yilning o'zida bu maqsadlar uchun qariyb 10 mln. dollar ajratildi. "Mamlakatda olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasida 2025-yil boshidan buyon 700 mingdan ortiq mehnat muhojiri O'zbekistonga qaytib keldi," - deya qayd etdi SMTI direktori.

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi sifatini oshirish bo'yicha ishlar ham kuchaytirilmoqda. Tobora ko'proq o'zbekistonliklar bandlik standartlari yuqori bo'lgan mamlakatlarni tanlamoqda va davlat siyosati asta-sekin bu o'zgarishlarga moslashmoqda.

Mamlakatda monomarkazlar tashkil etilib, ularda 150 mingdan ortiq kishi o'qitildi, shuningdek, migrantlarning malakasini tekshirish imkonini beruvchi raqamli platformalar, jumladan SkillsUz ishga tushirildi. Natijada 2024-yilda 10 mingdan ortiq fuqaro Yevropa Ittifoqi, Saudiya Arabistoni va Qatarda rasman ish bilan ta'minlandi. Germaniya bilan mehnat mobilligi to'g'risida bitim imzolandi, Janubiy Koreya va Yaponiya bilan qishloq xo'jaligi, logistika, texnologiya sohalarida ishlash uchun kasbiy va til o'rgatish dasturlari joriy etilmoqda.

E.Aripov o'z nutqining yakunida migratsiya fenomeniga nisbatan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidladi. "U endi qisqa muddatli ishchi kuchi tanqisligini bartaraf etish vositasi sifatida emas, balki iqtisodiyot va jamiyatni o'zgartirishning tizimli asosiga, milliy taraqqiyotning strategik boyligiga, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning muhim elementiga aylanmoqda," - deydi SMTI direktori.

Uning so'zlariga ko'ra, bir tomonlama cheklov va nazorat siyosati mehnat oqimlarini yashirin yo'llarga yo'naltiradi, davlatlar o'rtasidagi ishonchni zaiflashtiradi.

Shu nuqtayi nazardan, E.Aripov barcha tomonlar - jo'natuvchi, qabul qiluvchi mamlakatlar va migrantlarning o'zlari uchun o'zaro manfaatli shart-sharoitlarni ta'minlaydigan qo'shma standartlar, shaffof mexanizmlar va moslashuvchan kelishuvlarni shakllantirish zarurligiga ishonch bildirdi.

Eslatib o'tamiz, "Valday" xalqaro munozara klubi, Tashqi va mudofaa siyosati kengashi, Rossiya xalqaro munosabatlar kengashi, MGIMO va "Oliy iqtisodiyot maktabi" Milliy tadqiqot universiteti tomonidan tashkil etilgan forumda Yevropa, Osiyo, Afrika, Yaqin Sharq, Shimoliy va Janubiy Amerika, shuningdek Markaziy Osiyodagi 42 mamlakatdan 140 dan ortiq mutaxassis ishtirok etdi.

Tadbirning yuqori martabali mehmonlari va spikerlari orasida Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov, Rossiya Prezidenti Administratsiyasi rahbari o'rinbosari Maksim Oreshkin, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosari Aleksandr Novak va Moskva meri Sergey Sobyanin bor.